



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

3 МАХСУС СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР 3

LOOK TO THE PAST
SPECIAL ISSUE 3



ТОШКЕНТ-2022

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори,
профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари
университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Агзамова Гулчеҳра Азизовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика
университети

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори,
Тошкент кимё - технология институти

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори, профессор,
Қариши муҳандислик-иқтисодиёт
институти

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори, профессор
Қариши давлат университети

Маҳкамova Надира Раҳмановна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент ахборот технологиялари
университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Джоробекова Айнуэр Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Раҳмонкулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори, профессор
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори, профессор
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмудалиевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Алнева Лале
тарих фанлари доктори,
Озарбайжон давлат университети

Сайнова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори,
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc)
Ўзбекистон Миллий университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
Тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Ўзбекистон жаҳон
тиллари университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

| | |
|--|-----|
| 1. Раҳбархон Муртазаева ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕКИСТОН ШАРОИТИДА ЁШЛАРГА ОИД ДАВЛАТ СИЁСАТИ..... | 6 |
| 2. Дилором Бобожонова ЎЗБЕК ОИЛАЛАРИДА ТИББИЙ МАДАНИЯТНИ ОШИРИШ, СОҒЛОМ ТУРМУШ ТАРЗИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МУАММОЛАРИ..... | 17 |
| 3. Баҳодир Эшов ҚАДИМГИ ШАҲАРЛАР ШАКЛЛАНИШИНИНГ ТАҲЛИЛЛАРИ..... | 26 |
| 4. Зумрад Раҳмонкулова МАҲМУД АМИН АФАНДИ “ИСТАНБУЛДАН ЎРТА ОСИЁГА САЁҲАТ”..... | 34 |
| 5. Манзура Аминова ИБН ХОЛДУН ИЛМИЙ МЕРОСИНING ЗАМОНАВИЙ АҲАМИЯТИ..... | 41 |
| 6. Тўлқин Ахмедов ТУРКИСТОНДА БИРИНЧИ РУС-ТУЗЕМ МАКТАБИ: МАЪМУРИЙ ЭҲТИЁЖ ЁКИ МАДАНИЙ ЯҚИНЛАШУВ ЗАРУРИЯТИ?..... | 48 |
| 7. Мансур Бойсариев ОЗАРБАЙЖОН ДИАСПОРАСИ ВАКИЛЛАРИНИНГ ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМ-ФАНИ ТАРАҚҚИЁТИГА ҚЎШГАН ҲИССАСИ..... | 56 |
| 8. Фируза Жуманиязова ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ЙИЛЛАРИДА ХОРАЗМ ХОТИН-ҚИЗЛАРИНИНГ ИЖТИМОЙ ҲАЁТДАГИ ФАОЛЛИГИНИНГ ДАВРИЙ НАШРЛАРДА АКС ЭТТИРИЛИШИ (1941–1945 йиллар)..... | 64 |
| 9. Мухаммаджон Исамиддинов АНТИК ДАВР ЁЗМА МАНБАЛАРИДА САМАРҚАНД ТАРИХИНИНГ ЁРИТИЛИШИ..... | 70 |
| 10. Бахыт Кошанов, Хакимбай Отегенов, Гулчехра Ержанова ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН ТАРИХШУНОСЛИГИНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ..... | 79 |
| 11. Shohruhbek Mamadaliyev TURKISTON SHAHARALARIDA OCHLARGA YORDAM KOMISSIYASI FAOLIYATI TARIXIDAN..... | 87 |
| 12. Gulnora Maxkamova XX ASR SAMARQAND KASHTALARI: XILLARI, USLUBLARI, ORNAMENT REPERTUARI (SAMARQAND DAVLAT MUZEYI NAMUNALARI MISOLIDA)..... | 93 |
| 13. Уктамжон Мансуров VI – XI АСРЛАР СУҒД ЁЗМА ЁДГОРЛИКЛАРИНИНГ ТАРИХИЙ МАНБА СИФАТИДА ЎРГАНИЛИШИ..... | 100 |
| 14. Шоназар Матякубов XVI- XVIII- АСРЛАРДА ХИВА ХОНЛИГИ ҲУНАРМАНДЧИЛИГИНИНГ АСОСИЙ СОҲАЛАРИДАН БИРИ-КУЛОЛЧИЛИК ТУРИ ТАВСИФЛАРИ..... | 105 |

| | |
|---|-----|
| 15. Отабек Махмудов «МИЛЛИЙ ТАРИХ» ВА «ТАРИХ ТАЪЛИМИ»ДА «ЖАҲОН ТАРИХИ»НИНГ АҲАМИЯТИ (лотин тилли тарихий манбалар ва замонавий ўзбек илмий адабиётининг қиёсий таҳлили медиевистик талқинда)..... | 109 |
| 16. Sayyora Mirsoatova, Aхrorbek Muxsidinov O‘ZBEKISTONDA MEZOLIT DAVRI YODGORLIKLARINING O‘RGANILISHI HAQIDA..... | 122 |
| 17. Зухра Ражабова ЖАЛОЛИДДИН МАНГУБЕРДИ СИЙМОСИННИНГ ЁШЛАР МАЪНАВИЯТИНИ ЮКСАЛТИРИШДАГИ АҲАМИЯТИ..... | 128 |
| 18. Мафтуна Рузикулова ФАРҶОНА ВОДИЙСИНИНГ МЕЛИОРАЦИЯ ВА ИРРИГАЦИЯ ИШЛАРИ ТАРИХИДАН (1950 – 1970)..... | 134 |
| 19. Хасанбой Рахматиллаев ҚАДИМГИ ВА ИЛК ЎРТА АСРЛАР ДАВРИ ЭТНИК ЖАРАЁНЛАРИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ МУАММОЛАРИ ҲАҚИДА..... | 139 |
| 20. Lutfiya Salomova AVSTRALIYA MILLIY ARXIVI FAOLIYATI HAQIDA..... | 144 |
| 21. Наргиза Сейтимбетова ҚОРАҚАЛПОҶИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ҚОЗОҚ МИЛЛИЙ МАДАНИЙ МАРКАЗИ..... | 148 |
| 22. Shaxnoza Tursunova O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING BENILYUKS DAVLATLARI BILAN XALQARO MUNOSABATLARINI RETROSPEKTIV TAHLILINING AYRIM JIHATLARI..... | 156 |
| 23. Икромжон Умаров КЎҲИТАНГТОҶ ҚИШЛОҚЛАРИНИНГ ҲУДУД БЎЙЛАБ ЖОЙЛАШУВ ХУСУСИЯТЛАРИ ВА АҲОЛИНИНГ ЭТНИК ТАРКИБИ..... | 161 |
| 24. Ма’мура Umarxodjayeva, Zilola Shodmonxo`jayeva, Nodira Xasanova O‘ZBEKISTON TARIXI DAVLAT MUZEYINING NOYOB XAZINASIDAN..... | 174 |
| 25. Санъат Худайбергенов ЎЗБЕКИСТОННИНГ ЯНГИ ТАРАҚҚИЁТ БОСҚИЧИДА ХОРАЗМ ВИЛОЯТИ ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИНИНГ ХОРИЖИЙ ҲАМКОРЛИК МАСАЛАЛАРИ..... | 178 |
| 26. Ҳабиба Ҳасанова 1917-1924 ЙИЛЛАРДА ТУРКИСТОН МИНТАҚАСИДА БОСМАХОНАЛАРНИНГ ТЕХНИК ҲОЛАТИДАГИ ЎЗГАРИШЛАР..... | 186 |
| 27. Ра’но Qodirova 1936-1937 YILLARDA O'ZBEKISTON SSR MAKTABLARIDA TARIX FANINING O‘RGANILISHI (M.Asimov hisobot materiallari asosida)..... | 192 |


| | |
|---|-----|
| 28. Қосим Қосимов ШАРҚИЙ БУХОРОДА ҚИЗИЛ АРМИЯГА ҚАРШИ МИЛЛИЙ ОЗОДЛИК ҲАРАКАТЛАРИ..... | 196 |
| 29. Ислон Қаршиев МУТАФАККИР СЎФИ ОЛЛОЁР ҚАРАШЛАРИДА ТАСАВВУФИЙ ҒОЯЛАР ТАҲЛИЛИ..... | 203 |
| 30. Гулжаҳон Шайдуллаева ХАРАППА МАДАНИЯТИ ЁДГОРЛИКЛАРИДАН ТОПИЛГАН ОКС ЦИВИЛИЗАЦИЯСИГА ХОС БЎЛГАН МОДДИЙ МАНБАЛАР ТАҲЛИЛИДА МАДАНИЙ ВА САВДО АЛОҚАЛАРИ..... | 209 |
| 31. Fotima Shirinova, Zumrad Kosimova XX ASRNING 20-30-YILLARIDA SOVET HOKIMIYATINING O'ZBEKISTONDA YURITGAN SIYOSATI, UNING MONIYATI VA OQIBATLARI. SIYOSIY QATAG'ONLIK..... | 222 |
| 32. Юлдаш Юлдашев ХОРАЗМ ВИЛОЯТИ ДАВЛАТ АРХИВИ 555-ФОНДИНИНГ АРХИВ МАНБАШУНОСЛИГИ ТАҲЛИЛИ..... | 230 |
| 33. Акмал Якубов ХИВА ХОНЛИГИНИНГ ТАШҚИ САВДО МУНОСАБАТЛАРИ (Дашти қипчоқ мисолида)..... | 237 |
| 34. Акмал Якубов ХИВА ХОНЛИГИ ВА ҚОЗОҚ ЖУЗЛАРИ (ўтроқ ва кўчманчилар ўзаро алоқларининг негизлари)..... | 246 |
| 35. Лазизахон Алиджанова ДИНИЙ ТАЪЛИМОТЛАРДА ТИББИЁТГА ОИД ИЖТИМОИЙ ҚОИДАЛАР ТАҲЛИЛИ..... | 256 |
| 36. Дилрабо Қурбанова ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕКИСТОНДА ГЕНДЕР ТЕНГЛИК СИЁСАТИ..... | 264 |
| 37. Камола Саипова УРУШ ДАВРИДАГИ ЎЗБЕК ХАЛҚИНИНГ БАҒРИКЕНГЛИК КўРСАТИШИ..... | 274 |
| 38. Аҳадулла Раҳматуллаев ТУРКИСТОНДАГИ МАҲАЛЛИЙ ЎЛКАШУНОС ВА КОЛЛЕКЦИОНЕРЛАР ФАОЛИЯТИ..... | 280 |
| 39. Азамат Ктайбеков ҚОРАҚАЛПОҒИСТОНДА ИЖТИМОИЙ-ИҚТИСОДИЙ ЎЗГАРИШЛАР (2000-2016)..... | 288 |
| 40. Гулнора Худойберганава “АСКЕТИЗМ” ТУШУНЧАСИ ВА ДИНЛАРДА АСКЕТИК АМАЛИЁТЛАРГА МУНОСАБАТНИНГ ТАҲЛИЛИ..... | 293 |



Ra'no Mampirjonovna Qodirova,
Farg'ona davlat universiteti
Jahon tarixi kafedrasida o'qituvchisi
Ranoimron16@gmail.com

1936-1937 YILLARDA O'ZBEKISTON SSR MAKTABLARIDA TARIX FANINING O'RGANILISHI (M.Asimov hisobot materiallari asosida)

For citation: Ra'no M. Kadirova, THE STUDY OF HISTORY IN THE SCHOOLS OF THE UZBEKISTAN SSR IN 1936-1937 (According to the report of M. Asimov). Look to the past. 2022, Special issue 3, pp.192-195

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.7485339>

ANNOTATSIYA

Maqolada 1936-1937-yillarda O'zbekiston SSR maktablarida olib borilgan tarix fani o'quv mashg'ulotlari, darslarni olib borishdagi tavsiyalar va kamchiliklar haqida fikr yuritilgan. Bundan tashqari maqolada taniqli metodist M.Asimov 1936/37-o'quv yilida Toshkent maktablarini o'rganish davomida uchragan kamchilik va xulosalar haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Milliy hududiy chegaralanish, SSSR Xalq Komissarlari Kengashi, NKP, Butunittifoq kommunistik partiyasi Markaziy qo'mitasi, VKP(b) Markaziy Komiteti

Раъно Мамиржонова Кадирова,
преподаватель кафедры всеобщей истории
Ферганского государственного университета
Ranoimron16@gmail.com

ИЗУЧЕНИЕ ИСТОРИИ В ШКОЛАХ УЗБЕКИСТАНСКОЙ ССР В 1936-1937 ГГ. (По материалам доклада М. Асимова)

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются уроки истории, проводившиеся в школах Узбекской ССР в 1936-1937 гг., рекомендации и недостатки в проведении уроков. Кроме того, в статье приводятся сведения о недостатках и выводах, с которыми столкнулся известный методист М. Азимов при изучении ташкентских школ в 1936/37 учебном году.

Ключевые слова: Национально-территориальное размежевание, СНК СССР, НКП, ЦК ВКП(б), ЦК ВКП(б).

Ra'no M. Kadirova,
Teacher of the Department of World History
at Fergana State University
ranoimron16@gmail.com

THE STUDY OF HISTORY IN THE SCHOOLS OF THE UZBEKISTAN SSR IN 1936-1937 (According to the report of M. Asimov)

ABSTRACT

The article deals with history lessons held in the schools of the Uzbek SSR in 1936-1937, recommendations and shortcomings in conducting lessons. In addition, the article provides information about the shortcomings and conclusions that the famous methodologist M. Azimov encountered when studying Tashkent schools in the 1936/37 academic year.

Index Terms: National-territorial demarcation, Council of People's Commissars of the USSR, National Communist Party, Central Committee of the All-Union Communist Party of Bolsheviks, Central Committee of the All-Union Communist Party of Bolsheviks.

1. Dolzarbligi:

Bugungi kunda tarix fanida qarama-qarshiliklarga to'la bo'lgan 20-30 yillarda respublikamizda xalq ta'limi tizimini shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari, o'sha murakkab davrda milliy ta'lim tizimidagi islohotlarni har tomonlama tahlil etish zarur.

Bu muhim ahamiyat kasb etuvchi mavzuni o'rganish O'zbekiston tarixi fanidagi o'ziga hos bo'shliqni to'ldirishga yordam beradi. Yangi O'zbekistonda zamonaviy ta'lim tizimini yaratish borasidagi sa'y-harakatlarda milliy maorif tizimi va tarix ta'lim tizimi tarixini o'rganish va tadqiq etish muhim ahamiyatga molik masala hisoblanadi. [6:b-529]

2. Metodlar va o'rganilganlik darajasi:

Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar – tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan bo'lib, unda san'at jamiyat rivojining ma'naviy asosini tashkil qilishi tarixiy aspektida ko'rsatilgan.

3. Tadqiqot natijalari:

Tarix o'quvchilarga insonning inson tomonidan ekspluatatsiya (foydalanish) qilinishi va sotsializmdan oldingi barcha ijtimoiy shakllanishlardagi ishchilarning zulmi va ekspluatatsiyani yo'q qilish, bizning tizimimizdagi mehnatni ozod qilishning aniq faktlarini ko'rsatishi kerak. 1917-yildagi Oktabr to'ntarishidan so'ng hukumat tepasiga kelgan bolsheviklar maorif tizimidagi ilgari boshqaruv tizimini tugatish va xalq ta'limining sovet modelini yaratishga jiddiy kirishdilar. Tarix bizning maktablarimizda yosh avlodni kommunistik tarbiyalashda yetakchi mavzulardan biridir. Ikki tizim - kapitalizm va sotsializm o'rtasidagi ziddiyat kuchayganligi sababli, maktablarimizdagi tarix alohida ahamiyatga ega, - [2:v-2] degan edi taniqli metodist M.Asimov

Milliy-hududiy chegaralanishdan keying davrda butun ittifoqda maktab ta'lim tizimini isloh qilish bo'yicha harakatlar boshlandi. "Gap so'nggi yillarda sovet pedagogikasining erishgan yutuqlari to'g'risidagi bahsga borib taqaladi. Bir vaqtning o'zida uning butun o'rnatilishiga ta'sir qilmasdan, maktabning biron bir detaliga tegib bo'lmaydi, Shunday ekan, bahs butun sovet maktabining mohiyati, xarakteri, tuzilishi, maqsadlari, pedagogikasi to'g'risidagi nizolar tekisligiga o'tishi kerak va faqat shu tekislikda tarixdagi u yoki bu joy haqida gapirish mumkin", - deb ta'kidladi taniqli metodist M.M. Pistrak. [2:b-17]. " Dasturlarni faqat qisman tuzatishga qaror qilindi. Ayni paytda maktabga 1927-yilning "stabil" dasturlari bo'yicha yozilgan ilk darsliklar kela boshladi. 1927-yildagi "stabil" dasturlar ustida ishlashdagi qiyinchiliklar Sovet hokimiyati mavjudligining birinchi o'n yilligida yaratilgan sovet maktabi ishidagi tizimli inqirozning asosiy belgisi bo'lib chiqdi. O'quvchilarning bilim sifati pasligicha qoldi. 1931-yil sovet maktabi uchun "buyuk burilish" yili bo'ldi. Savodxonlik va bilim uchun kurash e'lon qilindi va maktabda o'qitishni to'rtinchi o'quv yilidan boshlab alohida tarixiy kursni tiklash to'g'risida fundamental qaror qabul qilindi. Ijtimoiy-siyosiy fanlarning mazmunini qayta ko'rib chiqish boshlandi. Biroq, keyingi uch yilda sovet olimlari va amaliyotchi o'qituvchilari ijtimoiy fanlar dasturlarini ishlab chiqishning yangi tamoyillarini topa olmadilar va barcha o'qish yillari uchun to'liq tarix dasturlari yaratilmadi. Ijtimoiy-siyosiy ta'limning ilgari yaratilgan tuzilmasi buzilgan, ammo hozirgacha yangisini ishlab chiqishning imkoni bo'lmagan. Amaliy dastursiz, darsliksiz ishlagan maktablar ishida jiddiy o'zgarishlar bo'lmadi. Shunday qilib, yetti yillik bitiruvchilar ijtimoiy hayotning o'ziga xos faktlarini mutlaqo yetarli darajada bilmaydigan, tarixiy nuqtai nazarga ega bo'lmagan, ijtimoiy hodisalarni chuqur tahlil qilish ko'nikmalariga ega

bo'lmagan xolda ta'lim oldilar. Ta'lim tizimining alohida tarkibiy qismlarini isloh qilish bo'yicha keyingi tarqoq urinishlar maktab ishidagi inqirozni yanada kuchaytirdi, uning barcha elementlarini beqarorlashtirdi.

1934-1937 yillarda maktablarda tarix va jamiyatshunoslik fanlarini o'qitish katta qiyinchiliklar bilan kechdi. O'qituvchilar darsliklarsiz va doimiy dasturlarsiz, eng og'ir kadrlar "ochligi" sharoitida ishlashga majbur bo'ldi. Tarix fanini o'qitadigan o'quvchilar hech qanday tayyorgarliklarsiz tayinlandi. Darsliklardagi yetishmovchiliklar sababli maktablarda o'qituvchilar qanday ma'lumot topsa o'sha bo'yicha o'qitib ketavergan. [2:b-19].

Partiya va hukumat maktablarda tarix kursini o'qitishga katta ahamiyat bergan. 1934-yilda (16-may) Butunittifoq kommunistik partiyasi Markaziy qo'mitasi va SSSR Xalq Komissarlari Kengashi maktablarda fuqarolik tarixini o'qitish to'g'risida qaror chiqardi, unda tarixni o'qitishning qoniqarsizligi ta'kidlandi. Ushbu qaror tarix o'qituvchilariga amaliyotda yuzaga kelgan asosiy kamchiliklarni bartaraf etishning aniq usullarini ko'rsatdi. Butunittifoq kommunistik partiyasi Markaziy qo'mitasi va SSSR Xalq Komissarlari Kengashining 1934-yil 16-maydagi qarori Ittifoq maktablarida tarix kursini tashkil etishning qoniqarsizligini ko'rsatdi.

1936-37 o'quv yilining chorak qismida tarix fani ko'rsatkichlarini baholash mezonlarini ishlab chiqish uchun taniqli metodist M.Asimov Toshkentdagi 8 ta maktablarda tarix darslarini kuzatgan va test sinovlarida qatnashgan. Hammasi bo'lib u Toshkent shahridagi 8 ta maktabda 30 ta darsda qatnashadi, shundan 5-sinfda 12 ta dars, 6-sinfda 10 ta dars, 7-sinfda 8 ta dars, shu jumladan 19 ta takrorlash darslari va 11 ta test sinovlarida ishtirok etgan. Ushbu takrorlash darslari va sinovlari maktabda tarix kurslaridagi o'qish uchun umumiy bo'lgan ba'zi kamchiliklarni aniqlaydi.

Birinchi eng muhim kamchiliklardan biri bu ba'zi maktab o'quvchilari tomonidan xaritalarni bilmaslikdir. Ba'zida tarix o'qituvchisi tarix darsida xaritalardan foydalanishiga ahamiyat berishmaydi, ularni ikkinchi darajali qo'llanma deb hisoblagan. Aksariyat maktablarda tarixiy xaritalar umuman yo'q bo'lgan. Metodist M.Asimov o'zining Toshkent maktablarini o'rganishi bo'yicha yozgan hisobotida bu haqida shunday fikr qoldirgan: "41-maktabning (Toshkent) 7-sinf o'quvchisi o'tilib bo'lgan tarixini, Polshani xaritada ko'rsata olmadi (22-mart 1937-yil). Xuddi shu sinfda yana bir o'quvchi Indo-Xitoy o'rniga Niderlandni ko'rsatdi. 76-maktabning 7-sinf o'quvchisi sinov paytida Amerikani ko'rsata olmadi.

Qo'ylig maktabining 5-sinf o'quvchisi Quang-ku daryosini Yevropada qidirib, topa olmaydi, Arabistonga o'tib, nihoyat, yo'qolgan qiymatni topgan odamga o'xshab, Nilga quvonch bilan ko'rsatadi. (9-iyun 1937-yil) Maktablarimizda tarixni o'qitish amaliyotidan bunday misollarni ko'p keltirish mumkin. Bularning barchasi shuni ko'rsatadiki, tarix o'qituvchilari geografik va tarixiy xaritalardan muhim qo'llanmalar sifatida foydalanishni kam baholaydilar.

Ma'lum bir mamlakatning geografik joylashuvi va tabiiy sharoitlarini bilmasdan, uning tarixini tushunish qiyin. Nil daryosi rejimini bilmasa, Misr tarixini to'g'ri tushunmaydi, Yunonistonning geografik joylashuvini bilmasa, uning tarixidan ko'p narsani o'rgana olmaydi. Talabalar nafaqat ma'lum bir tarixiy voqea sodir bo'lgan vaqtni, balki joyni ham bilishlari kerak. Bizning bolalarimiz insoniyatning o'tmishidan vaqtiy va fazoviy tasavvurlarni rivojlantirishlari kerak, ularsiz talabalarga aniq tarixiy bilimlarni berish va o'qitishda sxematikani yo'qotish mumkin emas". [2:v-18;19]

Metodist M.Asimov Toshkent maktablaridagi tarix fanini o'qitish bo'yicha o'quv jarayonlarini o'rganish davomida tarix bo'yicha takrorlash darslari va test sinovlarida qatnashganda, aksariyat hollarda ular tarixiy terminologiyani o'rganishga va o'quvchilar tomonidan aniq tarixiy faktlarni nomlashga yetarlicha e'tibor berilmasligi, hatto o'qituvchilar o'rganish uchun ko'p mehnat talab qilinadigan faktlarning nomlarini aytmaydilar, ba'zida o'zlari atamalarni, tarixiy shaxslarning nomlarini, joylarni va boshqalarni noto'g'ri talaffuz qilishlari haqida aytib o'tgan. [2:v-19] Bundan tashqari u o'z fikrlarini ayon etish davomida o'qituvchilar tomonidan darslarda konspektlar yozdirilmasligi, darsliklar va ma'lumotlar yetishmayotgan bu davrda bu jiddiy kamchilik ekanini aytib o'tgan. [1:v-22]

Umuman olganda O'zbekiston SSR ning bu davrdagi asosiy muammolaridan biri 7 yillik majburiy ta'limni joriy qilishdan iborat edi. Shu maqsadda O'zbekiston sovetlarining V syezdida

(1935-yil yanvar) O'zbekiston SSR Xalq komissarlari Sovetiga sakkiz yoshdan to 15 yoshgacha bo'lgan hamma bolalarni majburiy yeti yillik ta'limga tortish hamda respublika shahar va qishloqlarida yangi maktab binolari qurish dasturini taklif etdi. [4:b-651]

Xalq maorifi ehtiyojlari uchun juda ko'p mablag' ajratildi- birinchi besh yillik davrida 395,5 million so'm mablag' ajratilgan bo'lsa, ikkinchi besh yillik uchun 1162,5 million so'm mablag' ajratildi.

VKP(b) Markaziy Komitetining boshlang'ich va o'rta maktablarda o'qish-tarbiya ishlarini tubdan yaxshilashga qaratilgan "Boshlang'ich va o'rta maktab darsliklari to'g'risida"(1933-yil),"Boshlang'ich va o'rta maktablarda geografiyadan dars berish to'g'risida"(1934-yil), "SSSR maktablarida grajdanlar tarixidan dars berish to'g'risida"(1939-yil) kabi qarorlari ikkinchi besh yillik davrida juda katta ahamiyat kasb etdi. [4:b-652]

4.Xulosalar:

O'quv tarbiya ishlari qanchalik siyosatlashtirilmasin, sovet maktablarining moddiy ahvoli nihoyatda og'ir edi. Darsliklar, o'quv qurollari, xususan, qalam, siyoh, daftar taqchil edi. Bundan tashqari bolsheviklarning ta'lim siyosatini tezlik bilan isloh qilish davrida mahalliy kadrlarning yetishmasligi ham muammoni yanada jiddiylashtirdi. Ayni damda o'quv darsliklari takomillashtirilmagandi. Bundan taashqari mutlaqo yangi bo'lgan bu tizim mahalliy xalq bolalari orasida qiyinchilik bilan qabul qilindi. O'quvchilar intizomining pastligi o'quv ishlarini maromida olib borishga halal berardi. Mana shulardan kelib chiqib ushbu davrdagi ta'lim tizimidagi islohotlar kutilganidek natija bermagini ko'rish mumkin. Tarixiy ongning tubdan tozalashda o'tmish tajribasidan kelib chiqib yangi xulosalar chiqarish darkor.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. O'zMA R.2748-fond; 1-ro'yhat; 1070-ish
2. Петухова О.А.Историческое образование в российской школе В первые годы советской власти 1917-1937 гг: Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. Брянск,2004
3. Бущик Л.П. Очерк развития школьного исторического образования в СССР. – Москва, 1961.
4. O'zbekiston SSR tarixi.Uchinchi tom. Ulug' Oktyabr sotsialistik revolyutsiyasining g'alabasi va O'zbekistonda sotsializm qurish (1917-1937 yillar)/bosh muxarir Mo'minov I.- Toshkent,1971
5. Kadirova R.M. The beginning of the process of national limitation and sovietism in the public education system in Turkestan//Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. Vol. 12, Issue 04, April 2022 –P.428
6. Kadirova R.M. Bolshevik policy in public education: the national education system and the implementation of the soviet model in education // Asian Journal of Multidimensional Research. Vol 10, Issue 10, October, 2021. – P .529
7. Xalq ta'limi tizimidagi bolshevistik siyosat: milliy maorif tizimi va ta'limda sovet modelini tatbiq qilinishi//O'tmishga nazar.2021.-3-maxsus son; B-522

ЎТМИШГА НАЗАР

3 МАХСУС СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР 3

LOOK TO THE PAST
SPECIAL ISSUE 3

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадqiqот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000